

O'ZBEK RAQS SAN'ATI TARIXINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ruxshona Rasulova

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi talabasi

Annotatsiya: mazkur tezisda o'zbek raqs san'at shakllanishi va rivojlanishi a qisqacha aniq faktli ma'lumotlar asosida yoritilgan. O'zbek raqs san'ati namoyondalari faoliyati to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarix, meros, san'at, maktab, raqs, bayram, bazm.

Tarixiy taraqqiyotimizning har bir qatlamida yashiringan madaniy merosimizni o'rganish, uni kelajak avlod, yoshlarimiz ongiga singdirish, milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida 60 dan ortiq raqs jamoalari faoliyat olib bormoqda. Raqs jamoalarning har biri bugun o'z uslub va yo'nalishiga ega. Bu badiiy jamoalar milliy raqs maktabining Toshkent – Farg'ona, Xorazm va Buxoro yo'nalishlarida mehnat qilib, o'zbek raqs san'atining yuksalishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlar, arxeologik topilmalar raqs san'ati juda qadimiyligidan guvohlik beradi. O'zbek raqs san'atining qadimiyligi, yo'nalish va maktablarning boyligi ajdodlarimizning asosan dehqonchilik va xunarmandchilik bilan bog'liq bo'lganidan kelib chiqqan.

IV – VIII asrlarga kelib, O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xorazm, Shahrisabz shaharlaridan raqs ustalari Buyuk ipak yo'llari bo'ylab, Rim, Misr, G'arb o'lkalarigacha, sharqda Xitoy, Koreya va Yaponiyagacha borib, o'z san'atlarini namoyish etadilar. IX – XII asrlarda esa raqs san'ati yanada yuksalib, ko'plab xalq raqslari tiklanadi. Bu raqslar Navro'z, Mehrijon, Sa'da bayramlarida namoyish etiladi.

Milliy raqs san'ati Amir Temur va temuriylar davrida yanada ravnaq topadi. XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida Sayyid Badr, Tohir Chakka, Mohchuchuk, Maqsudali, Katta Moh, Kichik Moh laqabli raqs ustalari shuhrat qozongan.

XVIII-XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san'atida ham o'ziga xos uslublar vujudga kela boshladi. Ayol san'atkorlar Buxoroda – sozanda, Xivada – xalfa, Farg'ona vodiysida esa – yallachi deb yuritilgan. Bu davrda ayol san'atkorlardan iborat ixcham teatrlashtirilgan to'dalar

rivojlanib, ichkarilarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ularning dasturlari namoyish etilgan.

O'zbek milliy raqs san'ati mamlakatimizda XX asrning 20 yillarida yanada rivojlandi. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Gavhar Rahimova, Isoxor Oqilov, Roziya Karimova kabi fidoiy san'atkorlar milliy ijrochilik maktabini yaratdilar. Ustoz san'atkorlar milliy raqs san'atini ko'p asrlardan buyon asrab-avaylab kelayotgan an'ana va asriy qadriyatlar asosida boyitdilar. Bu asosan yakka va umumiy raqslarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Raqsshunoslik ilmiga san'at orqali kirib kelgan Roziya Karimova 1958-1965 yillarda mamlakatimizning ko'plab viloyat va tumanlariga uyushtirilganekspeditsiyada an'anaviy teatrni o'rganar ekan, masxaraboz va qiziqchilar harakatlari, ijro etgan o'yinlarini tadqiqot manbasi tarzida to'pladi. Jumladan, "Kichkinajon" o'yini, "Qarsak o'yin" turkumi shu tarzda yozib olingan. Mavjud raqs uslublarining o'ziga xosligini tushunish uchun har bir uslubdagi asosiy harakatlarni yozib olish va raqslarni qog'ozda ifoda etishdek alohida sistemani kashf etish zarur edi. Shu asosda raqs harakatlarini yozib olishga kirishildi. R.Karimova izlanishlari natijasi sifatida birin-ketin xalq raqsi uslublariga bag'ishlangan "Farg'ona raqsi" (1973 y.), "Xorazm raqsi" (1975 y.), "Buxoro raqsi" (1977y.) nomlanishidagi qo'llanmalar yaratildi.

O'z qo'llanmalarida R.Karimova raqs ustalari tomonidan yaratilgan va xalqning ma'naviy mulkiga aylangan an'anaviy raqslarni yozib olib, ularni jamlashga muvaffaq bo'ldi. Bu borada "Bahor" ansambli raqslari katta ahamiyat kasb etdi.

Mukarrama Turg'unboyeva tomonidan sahnalashtirilgan "Tanovar", "Jonon", "Munojot", "Farg'ona ruboiysi", "Pilla" kabi yakkaxon raqslar, "Bayot", "Bahor valsi", "Namangan olmasi", "Paxta" singari ommaviy raqslar R.Karimova tadqiqotlari manbasiga aylandi.

Ko'p o'tmay, Xorazm raqsi ustasi "Roviya Otajonova raqslari", Buxoro raqsi ustasi "Isaxor Oqilov sahnalashtirgan o'zbek raqslari" to'plamlari chop etildi. Bundan tashqari, "Lazgi" ansambli raqslari, "Mukarrama Turg'unboyeva raqslari", "Kunduz Mirkarimova raqslari" qo'lyozmalari nashrga tayyorlandi.

Uning "Buxoro raqsi" (Buxarskiy tanets) kitobida esa an'anaviy Buxoro raqs maktabiga xos ma'lumotlar, raqs ustalarining ijrolari yoritilgan. Raqs maktablari tarixi, shakllanishi, liboslari va taqinchoqlari tasniflangan, raqslar va ulardagi holat-harakatlar batafsil tadqiq etilgan.

R.Karimovaning yozishicha, an'anaviy Buxoro maktabi, Farg'ona va Xorazm maktablari o'z zahirasida ilk oddiy o'yinlar va raqs pantomimalari, taqlidiy raqslar va sodda o'yin-raqslarni, shuningdek yuqori darajadagi professional xoreografik

ilmlarni saqlab kelmoqda. Bu milliy raqsimiz merosiga tegishli xazina xalq madaniyatining o'zgacha rivoji, oddiydan to chuqur falsafiy tarkibga qadar bo'lgan san'at shakllarini aks ettiradi. Shu bilan birga raqs turlari, yo'nalish va maktablari o'zida butun xalq madaniyatining asta-sekinlik bilan rivojlanganini ifoda etadi.

Manbalarga ko'ra qadimiy Panjikent qal'asining devorlaridan birida qo'llarida musiqiy asbob ushlab turgan va berilib raqsga tushayotgan bir guruh yoshlar tasviri qayd etilgan. Zamonaviy kiyimlarga o'xshash kalta ishton kiygan bu yoshlarning chaqqon, yorqin, turli xildagi tana holatlariga qarab, aylanish, sakrash, o'tirib turish, qo'llanilgan epchil o'yinlarni tasavvur qilish mumkin²⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пугаченкова А.Г, Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Древности средневековья. – М., 1962.
2. Саидқосимов С., Аҳмедов А., Аҳмедов Б. Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 2001.
3. Қодиров М. Темурийлар даври томоша санъатлари. – Т.: Санъат, 2007.

²⁵Каримова.Р. Бухарский танец. Т., 1977